

ISSN:3060-4567 Modern education and development
**Milliy va diniy qadryatlar asosida yangi özbekiston yoshlarining
dunyoqarashini yuksaltirish**

*Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumani 1-son Kasb hunar maktabi Tarix
fani o‘qituvchisi
Xidirov Islomjon Tojiboy o‘g‘li*

Annotation. Maqolada bugungi kun yoshlar tarbiyasida Milliy g‘oya, ma’naviyatning hamda milliy, diniy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda oila va mahallaning ahamiyati haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Ma’naviyat, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyat, ma’naviy qadriyatlari, milliy g‘oya, vatanparvarlik, erk, erkinlik, masfkuraviy jarayon.

Аннотация. В статье раскрывается роль национальной идеи, духовности, общенациональных и общечеловеческих ценностей в воспитании современной молодежи, роль семьи и общества в воспитании молодежи в духе патриотизма.

Ключевые слова. Духовность, воспитание молодежи, национальные ценности, духовные ценности, национальная идея, патриотизм, свобода, идеологический процесс.

Abstract: The article reveals the role of the national idea, spirituality, national and universal values in the education of modern youth, the role of the family and society in the education of youth in the spirit of patriotism.

Keywords. Spirituality, education of youth, national values, spiritual values, national idea, patriotism, freedom, ideological process.

KIRISH

Mamlakatimizda ma’naviy va jismoniy barkamol yosh avlodni tarbiyalash masalasi har doim davlat siyosatining muhim bir bo‘g‘ini bo‘lib kelgan. Shu paytgacha bu borada ulkan ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, bu islohotlar bugungi davr talablari darajasida keng qamrovli emasligi hamda ba’zi sohalarda

kamchiligi ko‘rinib qolayotganligi hech kimga sir emas. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasida shunday deb ta’kidlagan edi: “...yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz”.

Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, Yurt kelajagi ham ma’nan, ham jismonan barkamol bo‘lgan yoshlar qo‘lidadaир. Shuning uchun ham boradagi sa’yiharakatlarni yanada kuchaytirish zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik, obyektivlik usulidan foydalanilgan bo‘lib, mavzuni yoritishda tavsifiy, qiyosiy metodlardan foydalanildi. Maqolada yangi o‘zbekiston yoshlari tarbiyasida milliy g‘oya- ma’naviy qadriyatlarning o‘rni obyektiv yoritilgan holda, mavzuning dolzarbligini bayon qilishda Sh.M. Mirziyoyevning asarlari metodologik manba sifatida olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘z davrida birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlab o‘tganlaridek: O‘zbekiston XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o‘rin egallashi o‘sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo‘lib voyaga yetishishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Shunday ekan, ayni paytda bu sohada yo‘l qo‘yilgan har qanday sustkashlik, kamchilik kelajakka berilgan zarbaga teng, deyish mumkin. Buning ustiga XXI asr vabosiga aylangan terrorizmning turli-tuman ko‘rinishlari xuruj qilib turgan bir paytda ogohlik va hushyorlik, qat’iyatlilik va mardlik talab etiladi. So‘nggi yillarda g‘oyaviy dushmanlarimiz o‘zlarining manfur niyatlarini amalga oshirish uchun eng zamonaviy telekommunikatsiya yutuqlaridan, jumladan, internet tarmog‘idan ham foydalanishga harakat qilayapti. Shu sababli ma’naviyatimizda bo‘shliq hosil bo‘lishiga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov – bunday bo‘shliq yuzaga kelgan taqdirda uni yoshlarning ilmga, kasbhunarga, sog‘lom turmush tarziga, bunyodkorlik ishlariga qiziqishlari bilan hamohang bo‘lgan yangicha hayot mazmuni, yangicha

qadriyatlar bilan to‘ldirish lozimligini o‘z davrida qayta-qayta uqtirib o‘tgan edilar. Yoshlarni turli qing‘ir yo‘llarga kirib ketishdan, nomaqbul oqimlar ta’siriga tushib qolishdan qanday himoya qilish mumkin? Bolalik, inson hayotining nihoyatda mas’uliyatli davridir. Ana shu pallada yigit-qizlarning har jihatdan garmonal rivojlanishi kuzatiladi.

Xalqaro til bilan aytganda, ularning qat’iy rivojlanish maqomi yuzaga keladi. Bu faslda ularning qalbi va ongi faol rivojlanib, dunyoqarashi shakllanadi, uning bosqichlari oila, bog‘cha, mahalla, mакtab, litsey, va oliy o‘quv yurtida rivoj topadi. Biroq, ming afsuslar bo‘lsinki, inson hayotining aynan shu bosqichida, ba’zan turli salbiy odatlarga, xususan, ichkilikbozlik va giyohvandlik domiga tushib qolishlari mumkinligi haqiqat!

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi kunda davlatimiz tomonidan yoshlarning porloq kelajagini yaratishga qaratilgan keng ko‘lamli siyosatidan, yaratilayotgan keng imkoniyatlardan, samarali islohotlardan foydalangan holda yurtimiz yoshlari barkamol avlod sifatida, har bir o‘g‘il-qiz avvalo, chet tilini mukammal bilishi, kompyuter sohalarini chuqur o‘rganishlari, internetdan foydalana olishi, milliy va diniy qadriyatlarga amal qilishlari, ilmiy izlanishlar olib borishlari, fidoyi Yurt farzandi bo‘lishlari lozim. Bunday yoshlar yurtimiz tinchligini,

osoyishtaligini ta’minlay oladigan insonlar bo‘lib, istiqbolni belgilashadi. Vatanimizning buyuk kelajagini qurish, oldimizda turgan katta-katta muammolarni yechish, mustaqilligimizni himoya qilish, hayotda milliy va umumbashariy qadriyatlар uyg‘unligi tamoyiliga amal qilib yashashdek muhim vazifalarni yoshlarimiz o‘zining muqaddas burchi deb bilayotgani, ayniqsa, e’tiborga sazovordir. Barkamol yoshlarni tarbiyalashdek porloq niyatimiz uchun bizda ma’naviy asos bor.

Mana shu ma’naviy meroslardan unumli foydalangan holda, o‘zbek yoshlari har qanday sohada yurtimizni dunyo tan oladigan Yurt sifatida himoya qilishlariga hamda har doim “O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmасligi”ga ishonamiz.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi. Toshkent. 2020 yil 29 yanvar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagи PF-5106 – son farmoni “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlari ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” Toshkent shahri, 2017 yil 5 iyul.
3. “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati asoslari” to‘g‘risidagi qonun. 1991 yil.
4. Karimov. I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. T.: “O‘zbekiston”, 1998, 17 – bet.